

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

“KELISHILGAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Advokatlar palatasi raisi**



A. Ernazarov

2022-yil 17 - oktabr

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori**



Sh. Rabiyeu

2022-yil 17 - oktabr

“ADVOKATLARNING MALAKASINI OSHIRISH”

o‘quv kursi bo‘yicha

O‘QUV DASTURI

(malaka oshirish)

O‘quv dasturi Yuristlar malakasini oshirish markazi
O‘quv va ilmiy-uslubiy Kengashining 2022-yil 5-oktabr dagi yig‘ilishida
muhokama qilingan va ma‘qullangan (3-sonli bayonnoma).

“Advokatlarning malakasini oshirish” O‘QUV KURSINING MAZMUNI

I. Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlashning samarali institutlaridan biri bo‘lgan advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tahlillar ko‘rsatganidek, advokatura hanuzgacha odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylana olmadi, advokatlarning huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan va ular tomonidan sifatli yuridik yordam ko‘rsatilishiga xalal berayotgan qator omillar mavjud.

Shu bois, advokatura tizimini tubdan takomillashtirish, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida, ularning kasbiy faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish va malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kursning o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-263-son qarorida belgilangan talablarga mos keladi.

O‘quv dasturida tinglovchilarni jinoyatlar va Ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlarda advokatning ishtiroki yo‘nalishlariga oid nazariy bilimlarini kengaytirish hamda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

II. Kursning maqsadi

Advokatlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish:

1-Modul bo‘yicha: Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi, advokatning moliyaviy faoliyati, advokatura sohasini raqamlashtirish, “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalanish tartibi, advokatura sohasida axborot-texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta‘minlash masalalari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyati: rivojlanish istiqbollari;

2-Modul bo‘yicha: Advokatlar tomonidan sudlarga da‘vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari, iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha advokatning sud muzokaralarida ishtiroki, iqtisodiy va fuqarolik ishlar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash masalalari, ishga tiklash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning alohida xususiyatlari, mehnatga oid nizolarni hal qilishda advokatning ishtiroki, yer munosabatlariga oid nizolarni sudda ko‘rish amaliyoti. Qurib bitkazilmagan ob‘ektlarga oid nizolar, er-xotinning mol-mulklarini bo‘lish to‘g‘risidagi nizolarda advokatning ishtiroki, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va uning asosiy qoidalari hamda Intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya qilish masalalari;

3-Modul bo‘yicha: O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, prinsiplari va amal qilish sohalari, ma‘muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha sudgacha va sud jarayonida advokatning ishtiroki, jinoyat protsessida dalillar maqbulligi borasida qonunchilik va amaliyot, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etish jarayonida advokat ishtirokining xususiyatlari;

4-Modul bo‘yicha: advokatning muloqot olib borish ko‘nikmalari (ruhiy-psixologik jihatlari) va liderlik hamda advokatlik faoliyatida mediatsiyaning ahamiyati, advokatlarning kasb etikasi hamda advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish;

5-Modul bo‘yicha: inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro va milliy mexanizmlar, advokatlar mustaqilligi, kasbiy majburiyatlari va javobgarligiga oid xalqaro standartlar, advokatlik faoliyatida xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish, O‘zbekistonda gender tengligi va ayollarning

huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari, qiynoqlar holatlarini aniqlash va oldini olish tizimi: milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy standartlar, yuvenal yustitsiya: Xalqaro standartlar va O'zbekistonda qo'llash masalalari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida ariza (shikoyat)larni taqdim qilish va ko'rib chiqish tartibi, xalqaro sudlar va ularning yurisdiksiyasi hamda xalqaro tijorat arbitraji hal qiluv qarorlarini tan olish va bajarilishining umumiy xususiyatlari (sud amaliyoti).

III. Kursning vazifalari.

Advokatlarning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish:

Advokatura faoliyatini takomillashtirish va kafolatlarini kengaytirish yo'nalishlari va istiqbollari, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda advokat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki, advokatlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va maxsus bilim talab etiladigan sohalar, inson huquqlarini ta'minlashda advokaturaning roli va bu sohasidagi xorijiy tajriba.

IV. Advokatlarning bilim, ko'nikmalariga (kompetentlik) qo'yiladigan kasbiy malaka talablari

Advokatlar o'z kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi bilim, ko'nikmalarga (kompetentlik) ega bo'lishi kerak:

huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar bera olish;

huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuza olish;

fuqarolik, iqtisodiy va Ma'muriy ishlari hamda Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish;

jinoiyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish;

jamoani shakllantirish, liderlik va muloqot qilish va rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish; yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo'lish;

sharoitni obyektiv nazorat qilish va baholash qobiliyatining mavjudligi, huquq normalarini to'g'ri tushunish, ularni adolat prinsiplari asosida qo'llay olish;

kasbiy faoliyat sohasiga oid asosiy atamalar hamda tushunchalarini bilishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olishi;

tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsata olish, xakamlik sudida va xalqaro tijorat arbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshira olish;

Advokatlik kasb etikasi qoidalarini bilish.

V. Kutilayotgan natijalar

Kurs yakunida tinglovchilar advokatura faoliyatini takomillashtirish va kafolatlarini kengaytirish yo'nalishlari va istiqbollari, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda advokat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki, advokatlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va maxsus bilim talab etiladigan sohalar hamda inson huquqlarini ta'minlashda advokaturaning roli va bu sohasidagi xorijiy tajribaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

**“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursining
MAVZULAR REJASI**

№	Modul va mavzular nomi	Mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar			
		Ma’ruza	Seminar-treng	Amaliy mashg‘ulot	Jami
<i>1-Modul. Advokatura faoliyatini takomillashtirish va kafolatlarini kengaytirish yo‘nalishlari va istiqbollari</i>					
1.	Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (<i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori, 2022-yil 3-avgustdagi O‘RQ-786-son Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarorlari asosida</i>)	2	-	-	2
2.	Advokatning moliyaviy faoliyati	-	2	-	2
3.	Advokatura sohasini raqamlashtirish, “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalanish tartibi	-	-	2	2
4.	Advokatura sohasida axborot-texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari	-	-	2	2
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari	-	-	2	2
6.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyati: rivojlanish istiqbollari			2	2
<i>2-Modul. Fuqarolik va iqtisodiy ishlarda advokat ishtirokining uziga xos xususiyatlari</i>					
7.	Advokatlar tomonidan sudlarga da’vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari	2	-	-	2
8.	Iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha advokatning sud muzokaralarida ishtiroki	-	2	-	2
9.	Iqtisodiy va fuqarolik ishlar bo‘yicha majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash masalalari	-	2	-	2
10.	Ishga tiklash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning alohida xususiyatlari	-	-	2	2
11.	Mehnatga oid nizolarni hal qilishda advokatning ishtiroki	2	-	-	2
12.	Er munosabatlariga oid nizolarni sudda ko‘rish amaliyoti. Qurib bitkazilmagan ob’ektlarga oid nizolar	-	2	-	2
13.	Er-xotinning mol-mulklarini bo‘lish to‘g‘risidagi nizolarda advokatning ishtiroki (sud amaliyotining tahlillari)	-	-	2	2
14.	Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va uning asosiy qoidalari	-	2	-	2
15.	Intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya qilish masalalari (<i>internet jahon axborot tarmog‘idagi faktlarni tasdiqlash</i>).	-	-	2	2
<i>3-Modul. Ma’muriy va jinoyiy sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki</i>					
16.	O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, prinsiplari va amal qilish sohalari	2	-	-	2
17.	Ma’muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish	-	2	-	2
18.	Jinoyat ishlari bo‘yicha sudgacha va sud jarayonida advokatning ishtiroki	-	2	-	2

19.	Jinoyat protsessida dalillar maqbuli borasida qonunchilik va amaliyot	2	-	-	2
20.	Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti	-	2	-	2
21.	Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etish jarayonida advokat ishtirokining xususiyatlari	2	-	-	2
4-Modul. Advokatlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va maxsus bilim talab etiladigan soxalar					
22.	Advokatning muloqot olib borish ko'nikmalari (ruhiy-psixologik jihatlar) va liderlik	2	-	-	2
23.	Advokatlik faoliyatida mediatsiyaning ahamiyati	-	-	2	2
24.	Advokatlarning kasb etikasi. Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish	-	-	2	2
5-Modul. Inson huquqlarini ta'minlashda advokaturaning roli va bu sohasidagi xorijiy tajriba					
25.	Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy mexanizmlar	2	-	-	2
26.	Advokatlarning mustaqilligi, kasbiy majburiyatlari va javobgarligiga oid xalqaro standartlar.	-	2	-	2
27.	Advokatlik faoliyatida xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish	2	-	-	2
28.	O'zbekistonda gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari	-	-	2	2
29.	Qiynoqlar holatlarini aniqlash va oldini olish tizimi: milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy standartlar	-	2	-	2
30.	Yuvenal yustitsiya: Xalqaro standartlar va O'zbekistonda qo'llash masalalari (advokatlarning uchun amaliy tavsiyalar)	2	-	-	2
31.	Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida ariza (shikoyat)larni taqdim qilish va ko'rib chiqish tartibi	2	-	-	2
32.	Xalqaro sudlar va ularning yurisdiksiyasi	-	2	-	2
33.	Xalqaro tijorat arbitraji hal qiluv qarorlarini tan olish va bajarilishining umumiy xususiyatlari (sud amaliyoti)	-	-	2	2
	Yakuniy sinovlar	-	-	6	6
J A M I:		22	22	28	72

O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-Modul. ADVOKATURA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA KAFOLATLARINI KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI
<p style="text-align: center;">1-mavzu: Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori, 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-son qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarori asosida)</p> <p>Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ustuvor vazifalari. «Litsenziya» axborot tizimi. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish elektron tizimi. «Yuridik yordam» axborot tizimi. «Elektron advokatlik orderi»ni berish amaliyoti. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi va «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar. Advokatlik faoliyatini litsenziyalash. Litsenziya olish uchun ariza berish va uni ko'rib chiqish tartibi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish va o'zgartirish. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish hamda litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish. Litsenziyalovchi organning qarorlari va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat berish va uni ko'rib chiqish tartibi. Litsenziyalar reestrini yuritish tartibi. Advokatlik faoliyatini litsenziyalash pasporti. Advokatlik faoliyatini litsenziyalash sxemasi.</p>

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-263-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 2022-yil 5-avgustdagi 432-sonli qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

2-mavzu: Advokatning moliyaviy faoliyati

Huquqiy yordam ko‘rsatganlik uchun haq olish va rasmiylashtirish tartibi. Advokatlar palatasi ehtiyojlari uchun mablag‘lar miqdori va o‘tkazish tartibi. Advokatlarning o‘qitishi uchun malbalag‘lar o‘tkazish tartibi. Advokatlik faoliyatini soliqqa tortish.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5441-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi III-Konferensiyasining 2018-yil 17-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining ustavi (yangi tahrirda).

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

3-mavzu: Advokatura sohasini raqamlashtirish, “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalanish tartibi

Fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat idoralari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi “Yuridik yordam” axborot tizimi. Advokatlar elektron reestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabineti. Jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda ishonch bildiruvchi shaxs xohishiga asosan masofadan turib yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida onlayn bitimlar (shartnomalar) tuzish va onlayn yuridik yordam ko‘rsatish imkoniyatlari.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-263-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 2022 yil 5 avgustdagi 432-sonli qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.

3. <https://www.minjust.uz>.

4-mavzu: Advokatura sohasida axborot-texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari

Axborot tushunchasi. Axborot to'g'riligi. Ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari. Axborot tarqatishda aybsizlik prezumiyasiga rioya etish. Feyklar va ijtimoiy media. Yolg'on va haqiqat chegarasi. Feyklar va axborot iste'molchilari. "Feyk"larni fosh qilish – Faktcheking. Qonun fake-newsiga qarshi: cheklov, mas'uliyat va javobgarlik. Telekommunikatsiya tarmog'i va elektron pochta. Axborot xavfsizligini ta'minlash.

Манбалар:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat"gi Qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1572-son Qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-614-son Qarori;
7. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 22-noyabrdagi "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 256-son Qarori;
8. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-maydagi "Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi apparatida, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida yagona himoyalangan elektron pochta va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hamda ulardan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 126-son qarori;
9. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 8-iyuldagi PQ-1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 296-son Qarori;
10. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-iyundagi "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 170-son Qarori.
11. Adliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yangi tahrirdagi axborot xavfsizligi siyosatini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 7-iyuldagi 120-um-sonli buyrug'i;
12. Adliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida maxfiy axborotni xavfsizligini ta'minlash tizimini joriy qilish to'g'risida" 2020-yil 3-dekabrda 259-um-sonli buyrug'i;
13. Adliya vazirining "Adliya vazirining 2015-yil 21-oktyabrdagi 208-um-son buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida" 2015-yil 1-dekabrda 238-um-sonli buyrug'i;

Internet-resurslar:

1. <https://lex.uz>.
2. <https://stt2.unicorn.uz>.

5-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarining mazmun-mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining birinchi asosiy yo'nalishi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ikkinchi asosiy yo'nalishi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining uchinchi asosiy yo'nalishni. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik. «Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi». Taraqqiyot strategiyasining 10-, 83- va 84-maqсадlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-sonli “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Internet saytlari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.

6-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyati: rivojlanish istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining huquqiy maqomi. Palataning maqsadi va vazifalari. Palataga a‘zolik. A‘zolarining huquq va majburiyatlari. Palataning rahbar organlari. Palataning mol-mulki va mablag‘lari. Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi. Palatani qayta tashkil qilish, tugatish va faoliyatini to‘xtatish tartibi.

Манбалар:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri).
4. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Ustavi (yangi tahrirda) / O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi III Konferensiyasining 2018-yil 17-noyabrda 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Internet saytlari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.

2-Modul. FUQAROLIK VA IQTISODIY ISHLARDA ADVOKAT ISHTIROKINING UZIGA XOS XUSUSIYATLARI

7-mavzu: Advokatlar tomonidan sudlarga da‘vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrda 829-sonli “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4818-son qarorining mazmun-mohiyati. 2020 — 2023-yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi. Sudlarning axborot tizimlarini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo‘yicha «yo‘l xaritasi». Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, advokatlar tomonidan sudlarga da‘vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrda 829-sonli “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4818-son qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

8-мавзй: Iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo'yicha advokatning sud muzokalarida ishtiroki.

Advokatlar tomonidan nizolarni sudgacha hal qilish va da'vo ishlarini olib borish

Fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha sud muzokalarari. Muzokalarda ishtirok etadigan taraflar. Uchinchi shaxslar, Prokuror. Suddagi vakil. Sud majlisining qismlari va sud majlisi zalidagi tartib. Sud majlisida tartibni buzuvchilarga nisbatan ko'riladigan choralar. Guvohlarni so'roq qilish tartibi va ushbu jarayonda yuzaga keladigan ayrim masalalar. Sudda ishni mazmunan ko'rish. Fuqarolik ishlarini ko'rishda advokat ishtirokiga oid O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligidagi yangiliklar. Fuqarolik va iqtisodiy ishlarni sudga ko'rish jarayonida advokat ishtirokining o'ziga hos jihatlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi.
8. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5409-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-dekabrda «Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun bo'sh turgan yer uchastkalarini berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1023-sonli qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 911-sonli Qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

9-mavzu: Iqtisodiy va fuqarolik ishlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash masalalari

Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Majburiyatlarni bajarishni ta'minlash tushunchasi va uning turlanishi. Neustoyka tushunchasi va uning turlari. Jarima tushunchasi va uning qo'llash asoslari. Penya tushunchasi va uning miqdorini belgilash tartibi. Garov bilan tartibga solinadigan talab. Ushlab qolish asoslari. Kafillik tushunchasi va u bo'yicha javobgarlikni belgilash masalalari. Kafolat tushunchasi va uni amalda qo'llash muammolari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-

huquqiy bazasi to'g'risida" Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmoni.

5. Raximov D. Majburiyatlar bajarilishini fuqarolik-huquqiy ta'minlash usullari: Monografiya. – T., 2018.

6. Raximov D. Majburiyatlar bajarilishini fuqarolik-huquqiy ta'minlash: Monografiya. – T., 2021.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

10-mavzu: Ishga tiklash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning alohida xususiyatlari

Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar yuzasidan da'vo qo'zg'atishning o'ziga xos xususiyatlari. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha xodimlar vakillik organlari va uchinchi shaxslarni jalb qilish. Ish beruvchining xodimga mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida va xodim sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati. Ishga tiklash to'g'risidagi ishlar yuzasidan sud qarorlarining ijrosi.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonuni.
3. Гасанов М.Ю. Трудовое право Республики Узбекистан. Общая часть. – Т., 2016.
4. Shustiyak L. Xodimlarni ishdan bo'shatishda sizni jazoga tortish mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etamiz. // Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma. №4 (160), 2020.
5. Shustiyak L. Xodim ishdan qanday tiklanadi. To'rtta vaziyatda qadam-baqadam harakatlar // Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma. №10 (166), 2020.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

11-mavzu: Mehnatga oid nizolarni hal qilishda advokatning ishtiroki

O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga so'nggi-yillarda kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar hamda undagi asosiy yangiliklarning mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchilikni takomillashtirishga oid islohotlarning mazmun-mohiyati. Mehnat huquqiy munosabatlarning sub'ektlari doirasi kengaytirish. Mehnat qonunchiligini amal qilish doirasi. Xodimlarga beriladigan qo'shimcha kafolat va imtiyozlar doirasini kengaytirish. Mehnat ta'tillari. Mehnat nizolari yuzasidan sudga murojaat qilish muddatlariga doir o'zgartishlar. Xodimlar vakillik organlari vakolatlarinin kengaytirish. Mehnat munosabatlarini tashkil qilishga doir o'zgartish va qo'shimchalar. Mehnat shartnomasi.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonuni.
3. Гасанов М.Ю. Трудовое право Республики Узбекистан. Общая часть. – Т., 2016.
4. Shustiyak L. Xodimlarni ishdan bo'shatishda sizni jazoga tortish mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etamiz. // Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma. №4 (160), 2020.
5. Shustiyak L. Xodim ishdan qanday tiklanadi. To'rtta vaziyatda qadam-baqadam harakatlar //Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma. №10 (166), 2020.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.
3. <https://www.minjust.uz>.

12-mavzu: Yer munosabatlariga oid nizolarni sudda ko'rish amaliyoti

O'zbekistonda yer munosabatlariga oid nizolar tushunchasi va mohiyati. Yer munosabatlariga oid nizolarning turlari. Yer munosabatlariga oid nizolarni sudda ko'rish amaliyoti.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Er kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi PQ-3677 “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1060-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk ob‘ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-yanvardagi “Yer uchastkalari berish va yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini realizatsiya qilishning zamonaviy va shaffof mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 63-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrda №911 «Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta‘minlash hamda yer uchastkalarini olib qo‘yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-dekabr, 1023-son «Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun bo‘sh turgan yer uchastkalarini berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta‘minlash hamda yer uchastkalarini olib qo‘yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning Ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida»gi o‘zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.

**13-mavzu: Er-xotinning mol-mulklarini bo‘lish to‘g‘risidagi nizolarda
advokatning ishtiroki (sud amaliyotining tahlillari)**

Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er-xotinning bo‘linishi lozim bo‘lgan birgalikdagi umumiy mol-mulki. Bo‘linmaydigan mulk yoki buyumlar. Er-xotinning umumiy mulkini nikohdan ajratilganda va nikoh davrida bo‘lish. Uyni bo‘lish. Avtomobilni bo‘lish. Bo‘linadigan uyni qiymatini aniqlash. Nikohni FHDYo organlarida qayd etmasdan bir oila bo‘lib yashaydigan shaxslarning mulkiy nizolari. Er-xotinning umumiy mulkini nikohdan ajratilganda va nikoh davrida bo‘lish. Ulushdan oshiq qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk beriladigan hollarda – kompensatsiya. Ulushdan oshiq qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk beriladigan hollarda – kompensatsiya. Da‘vo arizasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli «Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi Qarori.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Uy-joy nizolari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Qarori 2001-yil 14-sentabr, 22-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4270-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1060-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk ob‘ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentabrda “Kadastr sohasida

ayrim davlat xizmatlari ko'rsatishning Ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 535-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi "Elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 18-son qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi "Qurilish sohasiga oid yagona Ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 200-son qarori.

Internet resurslari:

1. <http://old.lex.uz>.
2. <https://paruz.uz>.

14-mavzu: Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va uning asosiy qoidalari

